



BUXORO XONLIGINING “QURUVCHI XON”I

Bosimova Dildora Abduvali qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro xonligining Shayboniylar sulolasidan chiqqan eng qudratli hukmdori Abdullaxon II (1534–1598) va uning davlatni markazlashtirish va hududlarni birlashtirish orqali siyosiy barqarorlikni ta'minlaganligi haqida atroflicha ma'lumotlar keltirilgan. U harbiy va diplomatik qobiliyati bilan Movarounnahr, Xuroson, Xorazm va Turkistonni o'z nazoratiga qo'shib, ilm-fan, madaniyat va maorifni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Shuningdek, maqolada Abdullaxon II o'z hukmronligi davomida adolat, qat'iyat va aholi tinchligini saqlash prinsiplariga asoslangan siyosat yuritgan, tarixda “Buxoro quruvchisi” sifatida nom qoldirganligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Abdullaxon II, Buxoro xonligi, Shayboniylar sulolasi, markazlashuv jarayoni, davlat arbobi, hududiy kengayish, mohir diplomatiya, sarkardalik qobiliyati, ilm-fan va madaniyat, “quruvchi xon”, adolat va tinchlik.

Shayboniylar sulolasidan chiqqan Buxoro xonligining eng qudratli hukmdorlaridan biri Abdullaxon II (Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xo'ja Muhammad ibn Abulxayrxon) 1534-yilda Miyonqol, Ofarikent qishlog'ida tavallud topgan. U 1583–1598-yillarda Buxoro xonligini boshqarib, davlatni markazlashtirish, hududiy kengaytirish va madaniy rivojlanish yo'lida katta ishlarni amalga oshirdi. Yoshligidan siyosiy faoliyatga jalb qilingan Abdullaxon II, 1561-yilda Navro'z Ahmadxon vafotidan so'ng Pirmuhammadxon bilan aloqalarni uzib, otasi Iskandar sultonni xon deb e'lon qiladi. Amalda davlat ishlarini o'zi boshqaradi, chunki otasi ilm-fanga oshno bo'lib, siyosiy ishlarga qiziqmagan[3, 47.]. Shu tariqa Abdullaxon II de-fakto Buxoro xonligi rahbari sifatida faoliyat boshlaydi.



Abdullaxon II Buxoroni egallash va butun Movarounnahrni markazlashtirish jarayonida Xo'ja Islomdan katta yordam oladi. Xo'ja Islom diniy vakillarning qudratini va aholining e'tiborini hisobga olib, tinchlikni ta'minlash va sulh tuzishda vositachilik qiladi. 1557-yilda Abdullaxon Buxoro shahrini egallashga muvaffaq bo'ladi, ammo Burhon Sulton bilan sulh va nizolar orqali bir necha bor shahar ustidan nazorat o'zgarib turadi[5,123]. Shu jarayonda Abdullaxon diplomatiya va sarkardalik qobiliyatini namoyon etadi.

Uzoq yillik urushlar orqali davlatni markazlashtirgan Abdullaxon II Movarounnahr, Xuroson, Xorazm va Turkistonni o'z nazoratiga qo'shib, Shayboniylar davridagi birlashgan davlatni qayta tiklashga erishadi. U 1574-yilda Balx, 1578-yilda Samarqand, 1582-yilda Toshkent, Sayram va Turkiston, 1583-yilda Farg'ona, 1584-yilda Badaxshon, 1588-yilda Hirot va uning atrofini, 1595-yilda esa Xorazmni o'z davlatiga birlashtiradi[6]. Shu tariqa Abdullaxon II hududiy kengayish, siyosiy barqarorlik va markazlashuvni amalga oshirgan hukmdor sifatida tarixda qoladi.

Abdullaxon II faqat siyosiy va harbiy faoliyat bilan cheklanmay, ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy hayotni ham rivojlantirdi. Uning homiyligi ostida madrasalar, masjidlar, xonaqohlar va ko'priklar bunyod etildi, olimlar va ulamolar faoliyati rag'batlantirildi, savdo-iqtisodiy aloqalar mustahkamlandi va sug'orish tizimi yaxshilandi[4,92-93]. Shu bilan birga, Abdullaxon II diplomatik aloqalarni rivojlantirib, qo'shni mintaqalar bilan siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'ydi.

1597-yilda Abdullaxon II va o'g'li Abulmo'min o'rtasida hokimiyat uchun keskin ziddiyat yuzaga keladi. Abulmo'min taxtni egallash maqsadida harbiy harakatlarni boshlashga uringan. Shu yilning kuzida Buxoro va Samarqand hududlarida qo'shinlar harakati bo'lib o'tadi, ammo Buxoro va Balx ulamolarining aralashuvi bilan vaqtinchalik sulh tuziladi[1,18-21]. 1598-yil 8-fevralda Abdullaxon II Samarqandda vafot etadi. Ba'zi manbalarga ko'ra, u tabiiy o'lim bilan olamdan



o'tgan, boshqalari esa o'g'li Abulmo'min buyrug'i bilan zaharlangan deya taxmin qiladi. Tarix fanida bu masala hozirgi kunga qadar aniq hal qilinmagan.

Abdullaxon II Buxoro xonligi tarixida eng qudratli va ijodiy hukmdorlardan biri sifatida qoladi. U davlatni markazlashtirdi, parchalanib ketgan hududlarni birlashtirdi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarni rivojlantirdi, diplomatik va harbiy faoliyat orqali hududiy kengayishlarni amalga oshirdi va tarixda "quruvchi xon" sifatida nom qoldirdi. Uning hukmronligi davri Buxoro xonligi tarixida siyosiy barqarorlik va madaniy rivojlanish davri sifatida ajralib turadi, ammo oxirgi yillarida yuzaga kelgan ichki ziddiyatlar davlatning kelajakdagi beqarorligiga sabab bo'lgan[2,51-52]. Abdullaxon II ning hayoti va faoliyati Buxoro xonligi tarixida o'chmas iz qoldirgan va uning boshqaruvi siyosiy, madaniy va ilmiy meros sifatida qadrlanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Abdullaxon II siyosiy va harbiy qobiliyati yuqori davlatni markazlashtirish, hududlarni birlashtirish va bir necha yillik yurishlar orqali Movarounnahr, Xuroson, Xorazm va Turkistonni nazoratga olishga muvaffaq bo'lgan. Shuningdek, Diplomatiya ustasi bo'lib, ichki nizolarni hal qilish, Burhon Sulton bilan sulh tuzish, diniy vakillar yordamida hududlarni bo'ysundirish kabi diplomatik ishlarni amalga oshirgan. Madaniyat va ilm homiysi sifatida madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, ko'priklar qurdirgan, olimlar va ulamolarni rag'batlantirgan. Adolat va qat'iyatli ushbu hukmdor hukmronlik faoliyatida qat'iyat bilan harakat qilgan, davlatning barqarorligini ta'minlashga intilgan. Markazlashtiruvchi hukmdor parchalanib ketgan xonlik hududlarini birlashtirib, siyosiy barqarorlikni ta'minlagan.

Abdullaxon II tinchlik tarafdori, diniy vakillar bilan ishlash orqali aholi tinchligini saqlashga intilgan. U o'z faoliyati bilan Buxoro xonligida siyosiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan mustahkam iz qoldirgan, tarixda "quruvchi xon" sifatida nom qozongan hukmdor hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Zamonov A., Buxoro xonligi tarixi. Toshkent, 2002.
- 2.Eshov B., Odilov A., O'zbekiston tarixi. Toshkent, 2004.
- 3.Jo'ybor xo'jalari xonadoni Muhammad Tolib, Matlab ut-Tolibin. Samarqand, 1990.
- 4.Hasanboyev T., Noryigitova M., Abdullaxon II faoliyati tarixi, Scientific Journal of History, 2024.
- 5.Babayarova Sh., Tokhtasheva Z., Bukhara Khan — The creative activity of Abdullah Khan II. 2025.
- 6.www.Ziyouz.com. Internet sayti